

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamaldinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	



INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Usmanov Gafurjon Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Respublikamizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida startap ekotizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi startap ekotizimi tuzilmasi va uning asosiy elementlariga doir ilmiy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish hamda ularni kompleks tasniflashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada startap ekotizimi elementlari institutsional muhit, moliyaviy mexanizmlar, innovatsion infratuzilma hamda inson kapitali va tadbirkorlik faolligi kabi yirik guruhlariga ajratildi va ularning o'zaro bog'liqlik mexanizmi nazariy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari startap ekotizimini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amaliy mexanizmlarni taklif etishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: startap ekotizimi, ekotizim elementlari, startaplar, innovatsiyalar, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion infratuzilma, venchur moliyalash.

Abstract. In the context of implementing economic reforms aimed at developing an innovation-driven economy in the Republic of Uzbekistan, the development of the startup ecosystem has become one of the pressing issues. The purpose of this article is to conduct a systematic analysis of scientific approaches to the structure of the startup ecosystem and its key elements, as well as to provide their comprehensive classification. The study employs comparative analysis, a systems approach, scientific abstraction, and generalization methods. As a result, the elements of the startup ecosystem are classified into several major groups, including the institutional environment, financial mechanisms, innovation infrastructure, as well as human capital and entrepreneurial activity. The mechanism of their interrelationship is also theoretically substantiated. The results of the study may serve as a methodological basis for developing economic measures and practical mechanisms aimed at improving and expanding the startup ecosystem.

Key words: startup ecosystem, ecosystem elements, startups, innovation, innovative entrepreneurship, innovation infrastructure, venture financing.

Аннотация. В условиях реализации экономических реформ, направленных на формирование инновационной экономики в Республике Узбекистан, развитие стартап-экосистемы становится одной из актуальных задач. Целью данной статьи является системный анализ научных подходов к структуре стартап-экосистемы и её основным элементам, а также их комплексная классификация. В ходе исследования использованы методы сравнительного анализа, системного подхода, научной абстракции и обобщения. В результате элементы стартап-экосистемы были сгруппированы в такие крупные категории, как институциональная среда, финансовые механизмы, инновационная инфраструктура, а также человеческий капитал и предпринимательская активность. Также теоретически обоснован механизм их взаимосвязи. Результаты исследования могут служить методической основой для разработки экономических мер по развитию стартап-экосистемы и предложению практических механизмов её совершенствования.

Ключевые слова: стартап-экосистема, элементы экосистемы, стартапы, инновации, инновационное предпринимательство, инновационная инфраструктура, венчурное финансирование.



KIRISH

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotlar uchun innovatsion rivojlanishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar global o'zgaruvchan shart-sharoitlarda barqaror o'sish sur'atlariga erishish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda jamiyat hayotida farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion rivojlanish, avvalo, rivojlanayotgan davlatlar uchun jahon iqtisodiyotida yuqori qiymatga ega va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishga turtki beradi. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini rivojlantirish, innovatsiya va texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan islohotlar ishlab chiqarish samaradorligi hamda yalpi mahsulot hajmini oshirishga olib keladi [1].

Shu o'rinda milliy iqtisodiyotlarda innovatsion tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda startaplarning salmog'i tobora oshib borayotganini ko'rish mumkin. Startaplar global miqyosda muhim iqtisodiy hodisa sifatida e'tirof etilib, 2021–2023 yillarda jahondagi jami startaplarning 33 foizi AQSHda, 19 foizi esa Osiyo qit'asida joylashganini ta'kidlash lozim [2]. Bu esa startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiy islohotlarni tadbirkorlik sohasida innovatsion yaratuvchanlikni rag'batlantirishga yo'naltirish, qulay innovatsion muhitni shakllantirish hamda barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, global miqyosda startaplarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor ortib borayotganiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda startap ekotizimini shakllantirishning nazariy jihatlarini yetarli darajada yoritilmaganini kuzatish mumkin. Xususan, unga ta'sir etuvchi omillar to'liq ochib berilmagan hamda ekotizimga oid qarashlarda ko'proq tavsifiy yondashuv ustunlik qilmoqda.

Mazkur tadqiqot innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida startap ekotizimini shakllantirishning nazariy jihatlarini o'rganish hamda shu asosda ushbu ekotizim faoliyatining konseptual modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida tez o'suvchi va innovatsiyalarga asoslangan startaplarni qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni shakllantirish global iqtisodiy makonda munosib o'rin egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar ko'rib chiqiladi:

- startap ekotizimiga oid asosiy tushunchalarni yoritish;
- startap ekotizimi bo'yicha mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- startap ekotizimi tarkibiga kiruvchi elementlarni aniqlash;
- mazkur ekotizimning innovatsion iqtisodiyotdagi o'rnini ochib berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlikda innovatsion faoliyat bilan bog'liq ilmiy izlanishlarda "startap ekotizimi" atamasidan foydalanishdan avval innovatsion ekotizim va innovatsion faoliyatdagi klaster yondashuvlari to'g'risida tadqiqotchilar tomonidan chuqur ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Bu qarashlar innovatsion ekotizim, hududiy innovatsion ekotizim hamda klaster yondashuvi kabi tushunchalar orqali innovatsion faoliyatni turli jihatlardan baholashni aks ettiradi.

Michael E. Porter ta'rifiga ko'ra, klaster – muayyan hududda joylashgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar, ixtisoslashgan ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, turdosh tarmoqlardagi firmalar hamda ular bilan bog'liq muassasalarning geografik jamlanmasi bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ham raqobat qiladi, ham hamkorlik qiladi [3]. Klaster orqali ma'lum tarmoqlar bo'yicha firmalarning birlashgan holda hamkorlikdagi faoliyatini kuzatish mumkin.

Shu o'rinda innovatsion ekotizim klasterdan farqli ravishda subyektlarning innovatsion faoliyat olib borishi uchun muhim bo'lgan ishtirokchilar, faoliyat turlari, resurslar hamda tegishli institutlar va ular o'rtasidagi bir-birini to'ldiruvchi yoki o'rnini bosuvchi munosabatlar yig'indisi sifatida qaralishini ta'kidlash lozim [4].

Tahlillardan kelib chiqadiki, klasterlar ma'lum sanoat tarmoqlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini birlashtirishni nazarda tutsa, innovatsion ekotizim aynan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro aloqalarni ifodalaydi.

Startap ekotizimiga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ekotizimning mazmun-mohiyati, uni belgilovchi jihatlarini, ekotizim tarkibiga kiruvchi elementlar hamda undagi ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar keng o'rganilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, startap ekotizimi to'g'risidagi nazariy qarashlarning shakllanishi tadqiqotchilar tomonidan tadbirkorlikni innovatsion taraqqiyot bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish natijasida yuzaga kelgan. Bunday qarashlar Daniel Isenberg, Ben Spigel, Eric Stam, Brad Feld, Nikhil Tripathi, Zoltan J. Acs va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Ushbu tadqiqotlarda startap ekotizimi tadbirkorlikning barcha sohalarini qamrab oluvchi tadbirkorlik ekotizimi konsepsiyasi doirasida shakllanganligi ta'kidlanadi [5,6,7,8].



Startup ekotizimi – bu o'zaro bog'liq ishtirokchilar, ya'ni tadbirkorlar, investorlar, universitetlar, korporatsiyalar, qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va davlat tomonidan yangi startaplarni yaratish hamda ularning o'sishini ta'minlashga qaratilgan qulay muhitni shakllantiruvchi hamkorlik tarmog'i sifatida e'tirof etiladi [9]. Bunda startup ekotizimlari aniq qonunchilik asoslari va shakllangan tartib-tamoyillar, turli sherikchilik hamda hamkorlik shakllari, davlat va xususiy sektorning faol ishtiroki, shuningdek, startaplarni tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan rag'batlantirish tizimi orqali namoyon bo'ladi [10].

2012 yildan buyon dunyodagi yetakchi startup ekotizimlarini o'rganib kelayotgan Startup Genome xalqaro tadqiqot tashkiloti tomonidan yuritiladigan Global Startup Ecosystem Report hisobotida startup ekotizimi ma'lum hududdagi markazdan taxminan 100 kilometr radius doirasida joylashgan umumiy resurslar — davlat organlari, akseleratorlar, inkubatorlar, kovorking markazlari, universitetlar va investitsion tashkilotlar majmuasi sifatida talqin etiladi [11].

Startup Genome yondashuviga ko'ra, startup ekotizimi ma'lum hudud doirasida startaplarni faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikdagi munosabatlarini anglatadi.

Startup ekotizimiga berilgan turli ta'riflar va tahlillardan ko'rinadiki, startaplarni ushbu ekotizimning markaziy elementi hisoblanadi. Qolgan barcha ishtirokchilar esa startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan gorizonttal munosabatlar tizimini ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini startup ekotizimlarini shakllantirishning nazariy jihatlarini o'rganish tashkil etadi. Shu sababli tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, institutsional va qiyosiy tahlil hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotda startup ekotizimi tuzilmasi va uning asosiy elementlarini o'rganishda innovatsion rivojlanish nazariyalari hamda institutsional iqtisodiyotdagi yondashuvlar asosida startaplarni faoliyatiga aloqador ishtirokchilar, ekotizimga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, undagi turli elementlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlilida startup ekotizimiga berilgan turli ta'riflardan kelib chiqadiki, ekotizim uning rivojlanishiga aloqador bo'lgan ko'plab ishtirokchilar, elementlar, turli darajadagi muhit hamda o'ziga xos omillar ta'siri ostida shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlarda aksariyat hollarda startup ekotizimini shakllantirishda bevosita qatnashuvchi ishtirokchilarni aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, Viktors Menšikovs, Olga Ruza, Alla Simakhova va Elena Semeneka startup ekotizimiga o'zaro hamkorlik munosabatlariga kirishadigan startaplarni, qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar, universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xizmat ko'rsatuvchilar hamda yirik kompaniyalarni ajratib ko'rsatadilar [12]. Mazkur ekotizimning markaziy elementi sifatida g'oyalar, ilmiy tadqiqotlar, startup jamoasi a'zolari, investorlar, konsultantlar va tadbirkorlar namoyon bo'ladi. Ular o'zaro bog'liq komponentlar bo'lganligi sababli g'oyalar va ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalarga turtki beradi, jamoa esa ularni amaliyotga tatbiq etadi. Mentorlar, investorlar va tadbirkorlar esa startapni zarur resurslar bilan ta'minlaydi. Bularning barchasi tashqi ishtirokchilarning uzviy hamkorlik aloqalari orqali yuzaga keladi.

Nikhil Tripathi, Pekka Seppänen, Markku Oivo va Kalle Lyytinen tomonidan 2018 yilda turli xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida mavjud startaplarga oid 18 310 ta ilmiy adabiyot tahlil qilinib, ulardan startup ekotizimiga aloqador 63 ta ilmiy maqola ajratib olindi va ekotizim elementlarini aniqlash maqsadida tahlil qilindi [13]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, startup ekotizimining asosiy elementlari sifatida tadbirkorlar, qo'llab-quvvatlash omillari, moliya, demografik elementlar, bozor, ta'lim, inson kapitali hamda texnologiyalar ajratib ko'rsatilib, ushbu elementlar tarkibida 48 ta subelement mavjudligi qayd etilgan. Masalan, qo'llab-quvvatlovchi omillar tarkibiga inkubatorlar, akseleratorlar, kovorking markazlari, huquqiy muhit, davlat, media maydoni, mentorlar hamda turli tadbirlar kiradi. Biroq, Nikhil Tripathi va hammualliflar tomonidan startup ekotizimi elementlarini keng qamrab olishga harakat qilingan bo'lsa-da, ekotizim elementlarida subyektlar (tadbirkorlar), resurslar (moliya, inson kapitali), turli darajadagi muhitlar (bozor) hamda ta'sir etuvchi omillar (demografik omillar, ta'lim, qo'llab-quvvatlash choralari) bir tizimda aralash holda talqin etilganini kuzatish mumkin.

Haris Ziakis, Maria Vlachopoulou va Konstantinos Petridis tomonidan ishlab chiqilgan StUpEco (Start-Up Ecosystem) konseptual modeli startup ekotizimini tizimli va ko'p o'lchamli tuzilma sifatida talqin qiladi [14]. Mazkur yondashuv ikki asosiy o'lcham — tuzilmaviy va institutsional o'lchamlarning uyg'unligiga asoslanadi.

Tuzilmaviy o'lcham doirasida startup ekotizimi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi olti asosiy tarkibiy element majmuasidan iborat deb qaraladi:

(1) ta'lim va ilmiy tadqiqotlar,



- (2) inson kapitali,
- (3) moliya va investitsiya fondlari,
- (4) davlat qo'llab-quvvatlashi,
- (5) biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi va ishbilarmonlik aloqalari,
- (6) tadbirkorlik madaniyati hamda startaplarni tashkil etishga rag'batlantiruvchi omillar.

Ushbu elementlar alohida-alohida emas, balki funksional jihatdan o'zaro bog'langan va dinamik o'zaro ta'sirga kirishuvchi tizim komponentlari sifatida qaraladi.

Institutsional o'lcham esa Quadruple Helix Model (To'rt zvenoli spiral) modeliga tayanadi. Unga ko'ra, startap ekotizimining har bir tuzilmaviy elementi biznes sektori, ilm-fan va ta'lim muassasalari, davlat institutlari hamda fuqarolik jamiyatiga proyeksiya qilinib, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va kooperatsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shu ma'noda ekotizim faqat omillar yig'indisi emas, balki turli institutsional ishtirokchilar o'rtasidagi ko'p tomonlama o'zaro ta'sir va sinergiyaga asoslangan yaxlit innovatsion makon sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday ikki o'lchamli yondashuv startap ekotizimini ham tarkibiy-tuzilmaviy jihatdan, ham institutsional hamkorlik mexanizmlari nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Ankit Agarwal tomonidan startap ekotizimi elementlarini aniqlashda modifikatsiyalangan to'liq tavsiflovchi tuzilmaviy modellashirish — M-TISM (Modified Total Interpretive Structural Modeling) usuli qo'llanilgan. Ushbu yondashuv asosida adabiyotlar tahlil qilinib, startap ekotizimining asosiy elementlari sifatida asoschilar va jamoa, innovatsion g'oya, akseleratorlar, mentorlar, inkubatorlar, moliyalashtirish, iqtisodiy hamda tartibga soluvchi muhit va startap kompaniya ajratib ko'rsatilgan [15].

Shuningdek, Ankit Agarwal startap ekotizimi elementlarini ularning o'zaro aloqalari hamda startaplarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yakuniy natijalar asosida to'rt darajali iyerarxiya ko'rinishida tasniflaydi. Bunda startap ekotizimi poydevori sifatida institutsional muhit (iqtisodiy va tartibga soluvchi muhit) qaraladi va u asosiy drayver hamda umumiy ekotizimni mustahkamlovchi ustun vazifasini bajaradi. Ekotizim iyerarxiyasining ikkinchi darajasini mentorlik qo'llab-quvvatlashi tashkil etib, inkubator va akselerator dasturlari orqali zarur resurslar hamda ijtimoiy kapital bilan ta'minlash, shuningdek, startap asoschilarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchi darajani asoschilar jamoasi tashkil etadi va ular startapni amalga oshiruvchi asosiy element sifatida qaraladi. To'rtinchi, ya'ni eng yuqori darajani yuqori sifatli g'oyalar, samarali moliyaviy tizim hamda barqaror startap kompaniyalari tashkil etib, ular startap ekotizimi faoliyatining natijalarini va muvaffaqiyatli rivojlanish ko'rsatkichlarini ifodalaydi.

Natijada Ankit Agarwalning qarashlari asosida quyi tizimlardan iborat, iyerarxik tuzilishga ega, o'zaro bog'langan elementlar hamda tizim ichidagi murakkab o'zaro ta'sir va bog'liqliklarni qamrab olgan startap ekotizimi modeli shakllanadi.

Mazkur tadqiqotda ko'rib chiqilgan turli ilmiy qarashlar asosida startap ekotizimi tuzilmasi va uning asosiy elementlariga doir ilmiy yondashuvlar bo'yicha taqqoslama tahlil tayyorlandi (1-jadval).

1-jadval. Startap ekotizimi tuzilmasi bo'yicha ilmiy yondashuvlarning taqqoslama tahlili

T/r	Model/ yondashuv	Mualliflar	Model mohiyati	Muhim elementlari	Aloqalar mazmuni
1	Startap ekotizimiga subyektli yo'naltirilgan yondashuv	V.Menshikov, O.Ruza, A.Simaxova, E.Semeneka (2024)	Startap ekotizimi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ishtirokchilar o'zaro hamkorligi majmuasi sifatida qaraladi.	Startaplar, qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, yirik biznes. Markaziy elementi – g'oyalar, startap jamoa, investorlar	Elementlar sherikchilik va qo'llab-quvvatlovchi aloqalar orqali hamkorlik qiladi; g'oyalar va tadqiqotlar innovatsiyalarni yuzaga chiqaradi; jamoa uni amalga oshiradi; investor va mentorlar resurslar bilan ta'minlaydi.
2	Startap ekotizimi tizimlashtirilgan yondashuv (meta-tahlil asosida)	N.Tripati, P.Seppanen, M.Oivo, K.Lyukkunen (2018)	Chop etilgan ilmiy maqolalar asosida ekotizimni tavsiflovchi elementlar va subelementlarga ega tuzilma yaratilgan.	Tadbirkorlar, qo'llab-quvvatlash omillari, moliya, demografik elementlar, bozor, ta'lim, inson kapitali, texnologiyalar (48 ta subelementlar)	Elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan omillar yig'indisi sifatida qaraladi; Subyektlar, resurslar, muhit va institutsional shart-sharoitlar aniq iyerarxiyaga ega emas va institutsional bo'linishlarsiz mavjud.



3	StUpEco – ikki o'lchamli konseptual model	X.Ziakis, M.Vlachopoulou, K.Petridis (2022)	Startup ekotizimi tizimli va ko'po'lchovli tuzilma sifatida tuzilmaviy va institutsional o'lchamlarga tayanadi	Ta'lim va tadqiqotlar; inson kapitali; moliya; davlat qo'llab-quvvatlashi; biznes infratuzilmasi; tadbirkorlik madaniyati	Aloqalar tizimli va dinamik xususiyatga ega; Har bir element Quadruple Helix modelidagi (biznes, ilm-fan, davlat, fuqarolik jamiyati) ustunlar orqali tahlil qilinadi; institutsional sinergiyani aks ettiradi.
4	Startup ekotizimining iyerarxik modeli	A.Agraval (2025)	Startup ekotizimi tavsiflovchi tuzilmaviy modellashirish (M-TISM) yordamida to'rt darajali iyerarxiya ko'rinishida tavsiflanadi.	Institutsional muhit; mentorlik qo'llab-quvvatlash; asoschilar; g'oyalar; akseleratorlar, moliyalashtirish, startup kompaniya	Elementlar ekotizimga ta'siri va mavqei bo'yicha tegishli darajada iyerarxiyaga tizimlashtirilgan; Elementlar darajaviy ta'sir ko'rsatadi; mentorlik qo'llab-quvvatlash salohiyatini, jamoa g'oyalarni amalga oshirishni, g'oyalar, moliyalashtirish va startaplar ekotizim natijadorligi ko'rsatkichlarini ifodalaydi.

Izoh: Mazkur jadval muallif tahlili asosida tayyorlangan

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, startup ekotizimi elementlarini tasniflash va ularni tahlil qilishda turli mualliflar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda ekotizim elementlari uchun umumiy komponentlar ham xos ekanligini ta'kidlash lozim.

Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish asosida startup ekotizimi elementlarini quyidagi to'rt yirik guruhga ajratish mumkin:

Institutsional muhit:

- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar;
- startup ekotizimini shakllantirishga oid qonunchilik bazasi;
- ekotizim ishtirokchilari uchun soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklar;
- mavjud biznes muhitidagi shart-sharoitlar.

Moliyaviy mexanizmlar:

- venchur kapital tizimi;
- institutsional va individual investorlar uchun yaratilgan muhit;
- davlat mablag'lari va grantlarining ajratilishi;
- banklar tomonidan moliyalashtirish imkoniyatlari.

Innovatsion infratuzilma:

- texnoparklar;
- inkubatorlar;
- akseleratorlar;
- kovorking markazlari;
- konsalting xizmatlari.

Inson kapitali va tadbirkorlik faolligi:

- startup jamoalarining faolligi;
- tadbirkorlar jamiyatining startaplarga ijobiy munosabati;
- mentorlik tashabbuslari hamda startaplarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari;
- oliy ta'lim muassasalarining startup ekotizimiga jalb etilganligi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarida startaplarni tijoratlashtirishga oid shart-sharoitlarning mavjudligi.

Ta'kidlash joizki, startup ekotizimi elementlarining samarali o'zaro hamkorligi innovatsion iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar innovatsion g'oyalarni startup loyihalari orqali amaliyotga joriy etish imkonini bersa, moliyaviy tashkilotlar ushbu loyihalarga mablag' ajratish orqali innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Institutsional muhit esa startup ekotizimi ishtirokchilarining barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Demak, startup ekotizimi ko'p komponentli va dinamik tizim bo'lib, uning samarali shakllanishi institutsional, moliyaviy hamda innovatsion omillarning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini talab etadi. Startup ekotizimiga nisbatan kompleks yondashuv innovatsion iqtisodiyot sharoitida startup kompaniyalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda startap ekotizimi tuzilmasi va uning elementlariga oid turli mualliflarning ilmiy yondashuvlari o'rganib chiqilib, startap ekotizimini shakllantirishdagi muhim elementlar aniqlandi. Tadqiqot natijasida mavjud ilmiy konsepsiyalar va nazariy qarashlar asosida startap ekotizimi elementlarini to'rt yirik guruhga — institutsional muhit, moliyaviy mexanizmlar, innovatsion infratuzilma hamda inson kapitali va tadbirkorlik faolligi — ajratish ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shu o'rinda startap ekotizimi doimiy ravishda o'zgarib boruvchi, o'zaro bog'langan dinamik tizim ekanligi yoritib berildi. Startap ekotizimi elementlarini tizimlashtirish bo'yicha taklif etilgan yondashuv mavjud ilmiy qarashlarni integratsiya qiluvchi kompleks model sifatida xizmat qilishi mumkin. Taklif etilgan tasnif startap ekotizimlarini kelgusida baholash va tahlil qilishda metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, startap ekotizimini shakllantirishda quyidagi amaliy jihatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Startap ekotizimini shakllantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash borasidagi iqtisodiy chora-tadbirlar faqat moliyaviy yoki infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaratish bilan cheklanib qolmasligi lozim.
- Rivojlanayotgan davlatlar uchun startap ekotizimini shakllantirishda inson omili muhim ahamiyatga ega bo'lib, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish hal qiluvchi omil hisoblanadi.
- Startap ekotizimini qo'llab-quvvatlovchi ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro aloqalar yetarli darajada uyg'unlashmagan taqdirda, startaplar uchun yaratilgan moliyaviy va innovatsion mexanizmlar kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, startap ekotizimining samaradorligi alohida elementlarning mavjudligiga emas, balki ekotizim elementlarining o'zaro integratsiyasi va muvozanatli rivojlanishiga bog'liqdir. Startap ekotizimi tuzilmasini shakllantirish jarayonida barcha elementlarni aniqlash, ularning ta'sir doirasini hamda o'zaro aloqalarini chuqur o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuv kelgusida muvaffaqiyatli startap muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. (2025). Global Economic Prospects, June 2025. Washington, DC: World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-2193-6>
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2025). Start-up Asia: Chasing the Innovation Frontier. Development Centre Studies. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/a9b71040-en>
3. Michael E. Porter. (1998). On Competition. Cambridge: Harvard Business School Press.
4. Ove Granstrand, & Marcus Holgersson. (2020). Innovation ecosystems: A conceptual review and a new definition. *Technovation*, 90–91, 102098.
5. Daniel Isenberg. (2011). Entrepreneurship Ecosystem Strategy as a New Paradigm for Economic Policy: Principles for Cultivating Entrepreneurship. Babson Entrepreneurship Ecosystem Project.
6. Ben Spigel. (2017). The relational organization of entrepreneurial ecosystems. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 41(1), 49–72. <https://doi.org/10.1111/etap.12167>
7. Erik Stam. (2015). Entrepreneurial ecosystems and regional policy: A sympathetic critique. *European Planning Studies*, 23(9), 1759–1769. <https://doi.org/10.1080/09654313.2015.1061484>
8. Brad Feld. (2020). *Startup Communities: Building an Entrepreneurial Ecosystem in Your City* (2nd ed.). Hoboken: Wiley.
9. Erik Stam, & Andrew H. Van de Ven. (2021). Entrepreneurial ecosystem elements. *Small Business Economics*, 56(2), 809–832. <https://doi.org/10.1007/s11187-019-00270-6>
10. Dobrynina, M., Rastimeshina, T., Andreeva, A., & Akoeva, M. (2024). The role of environmentally oriented start-ups in the transformation of traditional sectors of the economy. *Research Thoughts and Archival RT&A*, 19(SI 6(81), Part 3), 1524–1531.
11. Startup Genome. (2025). Global Startup Ecosystem Report 2025 (Version 2).
12. Menshikov, V., Ruza, O., Simakhova, A., & Semeneca, J. (2024). Development of startup ecosystems in selected countries with a focus on the cases. *Entrepreneurship and Sustainability Issues*, 12(1), 411–429. [http://doi.org/10.9770/jesi.2024.12.1\(27\)](http://doi.org/10.9770/jesi.2024.12.1(27))
13. Tripathi, N., Seppänen, P., Boominathan, G., Oivo, M., & Liukkunen, K. (2018). Insights into Startup Ecosystems through Exploration of Multi-vocal Literature. University of Oulu.
14. Ziakis, C., Vlachopoulou, M., & Petridis, K. (2022). Start-Up Ecosystem (StUpEco): A conceptual framework and empirical research. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 8, 35.
15. Agrawal, A. (2025). Demystifying the modalities of startup ecosystem: Key value-drivers towards new venture sustainability. *Sustainable Futures*, 10, 101384.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>